

O'ZBEKISTONDA BANK TIZIMINING RIVOJLANISHI TARIXI

Suyarov Zokirjon Ergashevich

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Andijon fakulteti

"Mutaxassislik, ijtimoiy-gumanitar va aniq fanlar"

kafedrasi katta o'qituvchisi

Nurmuhammad Bozorov Anvarjon o`g`li

Toshkent Davlat Iqtisodiyot Universiteti

Andijon fakulteti talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada O'zbekistonda bank tizimining rivojlanish bosqichlari, mustaqillik yillaridagi islohotlar va hozirgi kunda amalga oshirilayotgan o'zgarishlar haqida yoritiladi. Bank tizimining raqamlashtirilishi, xalqaro hamkorlikni kuchaytirish va tijorat banklarining rivoji maqolaning asosiy qisimlaridan biri. Shuningdek, bank tizimining dolzarb masalalari va istiqbollari yoritilib, uning O'zbekiston iqtisodiyotidagi muhim roli ko'rsatib o'tilgan. Ushbu maqola bank tizimining hozirgi holatini o'rganish va kelajakdagi rivojlanish yo'nalishlarini aniqlashga qaratilgan.

Kalit so`zlar: Bank, iqtisodiyot, rivojlanish, mustaqillik, moliya, tizim, raqamlashtirish, tijorat, moliyaviy operatsiyalar.

Аннотация: В данной статье описаны этапы развития банковской системы Узбекистана, реформы за годы независимости и изменения, которые реализуются сейчас. Цифровизация банковской системы, усиление международного сотрудничества и развитие коммерческих банков – одни из основных частей статьи. Также освещены текущие проблемы и перспективы банковской системы, показана ее важная роль в экономике Узбекистана. Целью данной статьи является изучение современного состояния банковской системы и определение направлений дальнейшего развития.

Ключевые слова: Банк, экономика, развитие, независимость, финансы, система, цифровизация, коммерция, финансовые операции.

Abstract: This article discusses the stages of development of the banking system in Uzbekistan, reforms during the years of independence and the changes being implemented today. The digitalization of the banking system, strengthening international cooperation and the development of commercial banks are among the main parts of the article. It also highlights the current issues and prospects of the banking system, highlighting its important role in the economy of Uzbekistan. This

article aims to study the current state of the banking system and identify future development directions.

Keywords: Bank, economy, development, independence, finance, system, digitalization, commerce, financial operations.

Kirish. O'zbekistonda bank tizimining rivojlanishi 1991-yilda mustaqillik qo'lga kiritilganidan so'ng boshlandi va mamlakatning iqtisodiy suverenitetini ta'minlashda muhim rol o'ynadi. Sobiq Sovet Ittifoqi davrida O'zbekistonning moliyaviy sektori markazlashgan bo'lib, barcha moliyaviy operatsiyalar Moskva orqali boshqarilgan. Mustaqillikdan keyin O'zbekiston o'zining milliy bank tizimini shakllantirish uchun harakat qildi. 1991-yilda "O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki to'g'risida"gi qonun qabul qilinib, Markaziy bankka asos solindi. Markaziy bank O'zbekistonning moliyaviy barqarorligini ta'minlash, valyuta siyosatini yuritish va banklarni nazorat qilish vazifasini o'z zimmasiga oldi. 1990-yillarning o'rtalaridan boshlab xususiy banklar faoliyatini qo'llab-quvvatlash, raqobatni oshirish va moliyaviy xizmatlarning sifatini yaxshilash maqsadida islohotlar amalga oshirildi. Xususan, 1995-yilda qabul qilingan "Banklar va bank faoliyati to'g'risida"gi qonun banklar faoliyatining huquqiy asoslarini belgilab berdi. Bu jarayonda O'zmilliyybank, Ipoteka bank, Agrobank va Asaka bank kabi davlat va tijorat banklari yetakchi o'rin egalladi. Xususiy sektorda Kapitalbank, Trastbank, Hamkorbank kabi tijorat banklari paydo bo'lib, iqtisodiyotning turli sohalariga investitsiyalarni jalb qilishda muhim rol o'ynadi. So'nggi yillarda O'zbekistonda bank tizimining rivojlanishida raqamlashtirish va innovatsiyalar muhim ahamiyat kasb etmoqda. Xususan yangi tahrirdagi konstitutsiyamizda ham bank tizimi haqida alohida modda berilgani ahamiyatga molik. Bevosita asosiy qonunimizning 151-moddasida shunday deyilgan "O'zbekiston Respublikasining bank tizimi O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankidan va banklardan iboratdir. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki pul-kredit va valyuta siyosatini ishlab chiqadi hamda amalga oshiradi. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki mamlakatda banklar faoliyatini tartibga solishni amalga oshiradi, bank va to'lov tizimlarining barqaror faoliyat ko'rsatishini ta'minlaydi. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki o'z vazifalarini bajarishda mustaqildir. O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining faoliyatini tashkil etish tartibi qonun bilan belgilanadi."¹

Elektron bank xizmatlari, mobil banking va to'lov tizimlarining joriy etilishi bank xizmatlaridan foydalanishni yanada qulaylashtirdi. 2019-yilda davlat tomonidan

¹ O'zbekiston Respublikasi konstitutsiyasi Toshkent. 2023

"Bank xizmatlarining raqamlashtirilishi to‘g‘risida" qabul qilingan dastur moliyaviy xizmatlarning yanada takomillashtirilishini ta‘minladi. Shuningdek, xalqaro hamkorlik kuchayib, Juhon banki va Osiyo taraqqiyot banki kabi tashkilotlar bilan birgalikda kredit va investitsion loyihamalar amalga oshirildi. Hozirgi kunda bank tizimi oldida xususiylashtirish jarayonini chuqurlashtirish, kapital bozorini rivojlantirish va xalqaro standartlarga moslashish kabi vazifalar turibdi. 2020-yilda boshlangan banklarning xususiylashtirilishi, jumladan, davlat ulushlarini kamaytirish, tijorat banklarining xalqaro moliyaviy bozorga chiqishini osonlashtirdi. Shu bilan birga, moliyaviy savodxonlikni oshirish va aholining keng qatlamlarini bank xizmatlariga jalb qilish muhim yo‘nalish sifatida belgilangan. Ushbu rivojlanish yo‘nalishlari O‘zbekistonda zamonaliv va barqaror bank tizimini shakllantirishga xizmat qilmoqda.

O‘zbekistonda bank tizimining rivojlanishi so‘nggi yillarda sezilarli darajada o‘sdi. 2017 yilda Prezident Shavkat Mirziyoyev tomonidan e’lon qilingan yangi bank tizimi islohotlari mamlakatda bank xizmatlarini modernizatsiyalash va rivojlantirishga qaratilgan².

Ushbu islohotlarning asosiy maqsadlari quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

- Bank tizimini shaffoflashtirish va korrupsiyani kamaytirish
- Bank xizmatlarining sifatini va mavjudligini oshirish
- Kichik va o‘rta biznesni moliyalashtirishga ko‘maklashish
- Bank tizimi ishtirokchilarining huquq va manfaatlarini himoya qilish

Ushbu maqsadlarga erishish uchun quyidagi chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda:

- Bank tizimini tartibga soluvchi qonun hujjalarni takomillashtirish
- Bank xizmatlarining raqobatbardoshligini oshirish
- Bank xizmatlarini innovatsion texnologiyalarni joriy etish
- Bank xizmatlaridan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish

Ushbu islohotlar natijasida O‘zbekistonda bank tizimi sezilarli darajada rivojlanadi. Bank xizmatlari ko‘لامи kengayadi, xizmatlar sifati yaxshilanadi va bank xizmatlaridan foydalanish qulayligi oshadi.

O‘zbekistonda bank tizimining rivojlanishi mamlakat iqtisodiyotining o‘sishiga va aholi turmush darajasining oshishiga ijobjiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Bugungi kunda O‘zbekistonda bank tizimi ikkita asosiy bo‘g‘indan iborat: Markaziy bank va tijorat

2 Respublika bank tizimini yanada rivojlantirish va barqarorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi 2017-yil 12-sentabrdagi PQ-3270-son qarori.

banklari. Markaziy bank pul-kredit siyosatini amalga oshiradi va bank tizimini nazorat qiladi. Tijorat banklari esa, aholi va korxonalariga turli xil bank xizmatlarini taqdim etadi.³

Kelajakda O‘zbekiston bank tizimining yanada rivojlanishi uchun quyidagi yo‘nalishlarda ishlash muhim⁴:

1. Raqobatni oshirish: Tijorat banklari o‘rtasidagi raqobatni kuchaytirish orqali xizmatlar sifatini yaxshilash.
2. Xalqaro moliya tizimiga integratsiya: Xalqaro moliya institutlari bilan hamkorlikni kengaytirish.
3. Kichik biznes va startaplarni qo‘llab-quvvatlash: Kreditlash mexanizmlarini soddalashtirish va qulay shart-sharoitlar yaratish.

O‘zbekistonda bank tizimining rivojlanishi mamlakat iqtisodiyotining barqarorligini ta’minlash va aholi farovonligini oshirish yo‘lidagi asosiy omillardan biri hisoblanadi. Kelgusida tizimning yanada takomillashtirilishi iqtisodiy o‘sishga ulkan hissa qo‘shadi.

Hozirgi kunda O‘zbekiston Respublikasida bank tizimi ikki bosqichli tuzilmaga ega:

1. Markaziy bank: Pul-kredit siyosatini yurituvchi, bank faoliyatini nazorat qiluvchi va tartibga soluvchi asosiy organ. Markaziy bankning asosiy vazifasi milliy valyuta barqarorligini ta’minlash, inflyatsiya darajasini nazorat qilish va moliya tizimini mustahkamlashdir.
2. Tijorat banklari: Davlatga qarashli, xususiy va xorijiy banklardan tashkil topgan. Tijorat banklari kreditlash, depozit qabul qilish, valyuta operatsiyalari va boshqa xizmatlarni amalga oshiradi.

So‘nggi yillarda O‘zbekistonda bank sektorining o‘sish sur’atlari quyidagicha kuzatilmoqda:

Aktivlar o‘sishi: Tijorat banklarining jami aktivlari yildan-yilga oshib bormoqda. Bu banklarning iqtisodiy o‘sishga qo‘shayotgan hissasini ko‘rsatadi.

Kapital hajmi: Banklarning ustav kapitali va zaxiralari xalqaro standartlarga mos ravishda oshirilmoqda.

³ Shodmonov Sh.Sh., G‘afurov U.V. Iqtisodiyot nazariyasi (darslik). - T., "Fan va texnologiya" nashriyoti, 2010

⁴ D. Acemoglu, J. Robinson. "Why Nations Fail: The Origins of Power, Prosperity, and Poverty", 2012.

Kreditlash hajmi: Qishloq xo‘jaligi, sanoat, kichik va o‘rta biznes sohalariga ajratilgan kreditlar hajmi sezilarli darajada o‘sib bormoqda.

O‘zbekistonning bank sektori oxirgi yillarda xorijiy investorlar uchun yanada ochiq bo‘lib bormoqda. Jumladan:

Xorijiy banklarning sho‘ba tashkilotlari ochilmoqda. Xalqaro moliya institatlari, masalan, Jahon banki va Osiyo taraqqiyot banki bilan hamkorlik kengaymoqda. Xalqaro kredit reytinglari bilan ishslash orqali banklar o‘z faoliyatini global standartlarga moslashtirmoqda.

Garchi bank sektori sezilarli rivojlanishga erishgan bo‘lsa-da, hali ham muammolar mavjud:

Likvidlik muammosi: Ayrim banklarda qisqa muddatli majburiyatlarni bajarish uchun zarur likvidlik yetishmaydi.

Yechim: Banklarning likvidlik zaxiralarini oshirish va Markaziy bank tomonidan likvidlikni ta’minlash mexanizmlarini takomillashtirish.

2. Tijorat banklari o‘rtasidagi raqobatning pastligi: Xususan, davlat banklari bozorning katta qismini egallab turibdi.

Yechim: Xususiy banklarni rag‘batlantirish va xorijiy investorlarga qulay sharoit yaratish.

3. Moliyaviy savodxonlik darajasining pastligi: Aholi orasida bank xizmatlaridan foydalanish madaniyati yetarli darajada rivojlanmagan.

Yechim: Moliyaviy savodxonlikni oshirish uchun keng ko‘lamli ma’rifiy dasturlarni joriy etish. 2023–2025-yillar uchun belgilangan bank islohotlari strategiyasiga ko‘ra:

Davlatga qarashli tijorat banklarining aksiyalarini xususiylashtirish jarayoni boshlangan. Masofaviy xizmat ko‘rsatish, jumladan, mobil bankingni rivojlantirish rejashtirilgan. Ekologik va ijtimoiy barqarorlikni ta’minlashga yo‘naltirilgan moliyalashtirish mexanizmlari rivojlantirilmoqda.⁵ O‘zbekistonning bank tizimi rivojlanish jarayonida bo‘lib, xalqaro tajriba va texnologiyalarga asoslangan holda yangi bosqichga o‘tmoqda. Tizimning keljakdagi rivojlanishi iqtisodiyotni

⁵ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 12.05.2020 yildagi PF-5992-son

diversifikatsiya qilish, investitsiyalarni jalb qilish va aholi turmush darajasini oshirishda muhim o'rinn tutadi.

Xulosa o'rnida. Respublikada bank tizimining quyi bosqichini paychilik, aksiyadorlik asosida, shuningdek chet el kapitali ishtirokida tashkil etilgan bank, ularning filial va vakolatxonalar, kooperativ va xususiy bank tashkil etadi. Bank sohasini monopoliyadan chiqarish bank islohotlarining eng muhim yo'naliшlaridan biridir. Dastlabki bosqichda bu asosan iqtisodiyotning ayrim sohalariga xizmat ko'rsatuvchi ixtisoslashtirilgan bankni tuzish yo'li bilan amalga oshirildi. Ixtisoslashtirilgan bankning tashkil etilishi bozorga yo'naltirilgan bank tizimini yaratish yo'lidagi zaruriy va tabiiy bosqich bo'ldi. Mamlakatimizda bank tizimini yanada rivojlantirishga qaratilgan islohotlarga hamohang tarzda soha mutaxassislari birgalikda faoliyatini yo'lga qo'yilsagina belgilangan marralara yetish imkoniyati oshadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O`zbekiston Respublikasi konstitutsiyasi Toshkent. 2023
2. Respublika bank tizimini yanada rivojlantirish va barqarorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risidagi 2017-yil 12-sentabrdagi PQ-3270-son qarori.
3. Shodmonov Sh.Sh., G'afurov U.V. Iqtisodiyot nazariyasi (darslik). - T., "Fan va texnologiya" nashriyoti, 2010
4. D. Acemoglu, J. Robinson. "Why Nations Fail: The Origins of Power, Prosperity, and Poverty", 2012.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 12.05.2020 yildagi PF-5992-son